



ANTON CHEXOVNING “XAMELEON” HIKOYASINI O‘QITISH  
ORQALI TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

Xudayberganova Diana Vladimirovna

Urganch davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi,

Navoiy nomli davlat stipendiyasi sovrindori

<https://orcid.org/0009-0000-2398-1612>

e-mail: [khudaybergenovadiana@gmail.com](mailto:khudaybergenovadiana@gmail.com)

+998-91-276-35-32

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada jahon adabiyotining zabardast vakillaridan biri, hikoya va drama janrida salmoqli ijod qilgan Anton Pavlovich Chexovning “Xameleon” hikoyasi tahlilga tortildi. Hikoya markazida politsiya nazoratchisi Ochumelov turadi. Uning lagabardorlik, ikkiyuzlamachilik va mansabga qarab muomalasining o‘zgarishi kabi salbiy xarakterlari muhokama qilindi. Mutolaa davomida kitobxon yuqoridagi illatlarga qarshi tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga hissa qo‘shishi yoritildi.

**Kalit so‘zlar:** Xameleon, Ochumelov, salbiy illatlar, xarakter, tanqidiy fikrlash.

**Abstract.** This article analyzes the story "Chameleon" by Anton Pavlovich Chekhov, one of the most prominent representatives of world literature, who created significant works in the genres of short stories and drama. The center of the story is the police inspector Ochumelov. His negative characteristics, such as laziness, hypocrisy, and changes in behavior depending on his position, are discussed. During the reading, it is highlighted that the reader contributes to the development of critical thinking against the above vices.

**Keywords:** Chameleon, Ochumelov, negative traits, character, critical thinking.

**Аннотация.** В данной статье анализируется рассказ «Хамелеон» Антона Павловича Чехова, одного из самых выдающихся представителей мировой литературы, создавшего значительные произведения в жанрах рассказа и драмы. В центре повествования — полицейский инспектор Очумелов. Рассматриваются





его негативные черты, такие как лень, лицемерие и переменчивость поведения в зависимости от занимаемой должности. В процессе чтения подчеркивается, что читатель способствует развитию критического мышления в отношении указанных пороков.

**Ключевые слова:** Хамелеон, Очумелов, негативные черты характера, критическое мышление.

**KIRISH.** Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda inson o‘z sohasining mutaxassisi bo‘lishi lozim. Chunki, hamma narsa o‘rnini raqamli texnologiyalarga bo‘shatib beryapti. Ulardan ustuvorligi bo‘lishi uchun har tomonlama ijodiy fikrlash, vaziyatga baho berish shart. Bu aynan adabiyot fani bilan ham chambarchas bog‘liq. Masalan, o‘quvchi asar mutolaa qilish davomida shu holatda men yoki yaqinlarim bo‘lsa qanday yo‘l tutar edim, bu vaziyat menga qanday ta‘sir qilar edi degan savollariga javob izlaydi. Ana shunday fikrlashga, mushohada qilishga undaydigan asarlar talaygina. Shulardan rus adabiyotiga nafaqat rus, balki jahon adabiyotiga ulkan hissa qo‘shgan, nasrdagi asarlari bilan dunyoga mashhur bo‘lgan Anton Chexov ijodi taqsigina loyiq U 1860-yil 29-yanvarda Rossiyaning Taganrog shahrida do‘kondor oilasida tug‘ilgan [1.422]. Bolalagidan adabiyotga qiziqishi baland bo‘lgan bo‘lsada, adib tibbiyot sohasida o‘qishni davom qildiradi. Talabalik yillarida yaratgan qisqa hikoyalari kitobxonlar tomonidan iliq qabul qilinadi. Asarlari ko‘p adadda nashrdan chiqib, qo‘lma-qo‘l bo‘ladi. Chunki “A. P. Chexov xalq hayotini zimdan teran o‘rgandi: odamlar orasida bo‘ldi, ularning dard-u holini tingladi” [6.152]. Shuning uchun yozuvchi yaratgan asarlar, soddaligi, tushunarligi va eng asosiysi qisqaligi bilan ko‘plab kitobxonlarning kitob javonidan joy olgan. Chexov asarlari hajman qisqa bo‘lishiga qaramasdan, mazmun jihatidan kattadir. “Garov”, “Qiyshiq oyna”, “Semiz va oriq”, “Xameleon” va boshqa ko‘plab hikoyalari shular jumlasidandir. Hikoyalari dunyoning ko‘plab tillariga, shu qatorda o‘zbek tiliga tarjima bo‘lgan. “Xameleon” hikoyasi to‘g‘risida Abdulla Qodiriy quyidagilarni aytib o‘tadi: “Agar Ochumelovning buqalamun ekanini uning so‘zlari orqali ko‘rsatilmay, avtor tomonidan ta‘riflansa, dunyo-dunyo so‘z ketar edi” [2.126]. Bu bilan Chexovning o‘tkir qalam sohibi ekanligiga alohida urg‘u bergan.

**MUHOKAMA.** “Xameleon” hikoyasida ikkiyuzalamachi insonlar nigohida mansabdorlarga, hatto ularning jonivorlariga ham, hamma narsa mumkinligi satira





orqali ochib berilgan. Asarga aynan bu nomning berilishi, tabiatan shunday yaratilgan mavjudot nomi bilan bog'liqdir. O'zbekiston milliy ensiklopediyasida unga quyidagicha izoh beriladi: "Xavf sezganda ko'p havo yutadi va tana shakli o'zgarib, qo'rqinchli tus oladi. Rangi yorug'lik, atrof-muhit va boshqalar ta'sirida tez o'zgaradi" [3.208]. Adib ushbu mavjudot orqali Ochumelovning xarakter xususiyatini ko'rsatib o'tgan. Voqealar bozor maydonida bo'lib o'tadi. Ochumelov hududni nazorat qilib yurganida hamma yoq suv quygandek jimjit edi. Biroq Xryukinning qichqirig'i bunga yakun yasadi. Nima bo'lanini so'rganida barmog'ini bir daydi it tishlab olganini aytadi: "Muhtaram afandim, qonunda, mundaqa maxluq kishiga ozor bersin, deyilgan emas... Agar har narsa tishlayversa, u vaqtda dunyoda turmaslik yaxshiroq..." [3.210] deydi. Hamma narsa shu yerdan boshlanadi. Ochumelov bu vaqtda Xryukin tomonida bo'lib, bunaqa daydi itlarni boshqa shaharlarda otib tashlashini, bunga ham bir yechim topishini ta'kidlaydi. Xryukinga amaliy yordam berishini aytadi. Ayni shu damda kimdir bu kuchuk ehtimol general Jigalovnikidir deganida birdan qizib ketganini, yordamchisi Yeldiringa ustidagi paltosini olishini aytadi. Shu ondayoq Xryukinni qoralab, seni ahvoling hammaga ma'lum, sen undan foydalanmoqchimisan deya har xil gaplar bilan haqorat qiladi. Yana kimdir bu zotdor emas, Jigalovda bunday sariq chaqaga arziyas itlarning yo'qligini, u ovchi itlarga qizishini va shularni boqishini aytadi. Xameleon kabi birdan rangini, nutqini, qiyofasini o'zgartiradigan Ochumelov yana Xryukin tarafli bo'lib oladi. Balandparvoz so'zlar: "Sen, Xryukin, qancha azob ko'ribsan, buni shunday qo'yib ketaverma!... Adabini berish kerak! Vaqt keldi..." [3.211] deya uni ovutadi. Shu vaqtda generalning oshpazi ko'rinib qolganini aytishadi ana endi shundan so'raymiz deb undan bu itning kimga qarashli ekanligini bilib olishmoqchi bo'lishadi. U ham kelib, ularda bunday it yo'qligini aytganida Ochumelov yana bu it aslida sayoq, hech kimga keraksiz daydi itligini, uni o'ldirib tashlash kerakligini aytadi. Biroq, oshpaz hali gapini yakunlamagan edi. Bu it generalning ukasiga qarashli ekanligini aytadi. Ochumelov o'ziga mos va xos bo'lgan o'zgaruvchanlik xarakterini yana bir marta ko'rsatadi. Xryukinga qarata: "Ol, mana buning barmog'ini tishla, xa-xa-xa..." [3.212] deydi. Jamlanganlar tomonidan Xryukin masxara qilinadi. Ochumelov unga ko'rsatib qo'yishini do'q qilib bozor maydonini tark qiladi. Bu borada tanqidiy fikrlash borasida quyidagi fikrlar o'rinlidir: "Tanqidiy fikrlashda ochiq fikrlash va o'z-o'zini tartibga solish – o'zining yutuq va





kamchiliklarini aniqlash, muammo yoki savolni hayotiga bog‘lab ko‘rib chiqish ham muhim hisoblanadi” [4.129]. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda kitobxon mutolaa qilish davomida bu vaziyatga har tarafdin yondashadi va turlicha xulosaga kelishi mumkin. Masalan, aynan bu xarakter orqali inson va hayvonning farqiga bormaydigan, faqat shon-shuhrat egasi bo‘lganlarninggina qadr-qiymati borligini ko‘rishimiz mumkin. Aslida inson fikrlay olishi, tafakkur qilishi bilan hayvon va boshqa mavjudotlardan ajralib turadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz” asarida quyidagicha xitob qiladi: “Hech qachon unutmaylik, dunyodagi o‘tda yonmaydigan, suvda cho‘kmaydigan eng katta boylik bu – bilim va tarbiyadir” [5.455]. Yuqoridagi fikrga tayangan holda, farzandlarimizga ta‘lim bilan birgalikda tarbiyaning to‘g‘ri berilishi har qanday moddiy boylikdan ustun ekanligidan dalolat beradi. Aksincha, beqaror, gapida turmaydigan, laganbardor insonning bu qiligi jamiyat rivojiga salbiy ta‘sir qilibgina qolmasdan, tanazzulga yuz tutishini ham olib kelishi mumkin.

**XULOSA.** Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, inson qanday holatga tushishidan qat’iy nazar insoniyligini yo‘qotmasligi, haqiqatga tik qarashi lozim. Ochumelov kabi mansab nog‘orasiga o‘ynagan, lavozimi yuqori bo‘lganning hatto itiga ham, hamma narsa mumkinligi ayanchli tarzda yoritilib berilgan. Mazkur asar umumta‘lim maktabining 7-sinf darsligida berilishining ko‘plab sabablari bor. Masalan, ayni shu damda o‘smirlikka o‘tish jarayoni boshlanadi. Bunda ijobiy va salbiy odatga ajrata olishga o‘rganadi. Bola shu vaqtda illatlardan qochib, ijobiy hislatlarga ega bo‘lish uchun harakat qiladi. Adabiyot fani oldiga qo‘ygan maqsadiga shu tartibda erishadi desak adashmagan bo‘lamiz. Biz o‘ylaymizki, har bir shaxs o‘zini bu kabi illatlardan chetga olsa, bu jamiyat ravnaqi va taraqqiyoti uchun, kelajak-avlod tarbiyasida mayoq vazifasini bajaradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Hamrayev M., Sariyev Sh. Adabiyot fanidan ma‘lumotnoma. –Toshkent: Yangi kitob, 2020. – 656 b.
2. Karimov B. Abdulla Qodiriy. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 160 b.





3. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta‘lim markazi, 2022. – 224 b.
4. Mirzayeva Z., Jalilov K. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi darslik. – Toshkent: Academ space, 2024. – 295 b.
5. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. –Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 520 b.
6. To‘liyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot. O‘rta ta‘lim muassasalarining 11-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik-majmua II qism. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 200 b.

